

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**RAJAPOV SHUXRAT ZARIPBAYEVICH**

**O‘ZBEKISTONDA IKKIYOQLAMA SOLIQQA TORTISHNI BARTARAF  
ETISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fan doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации**

**Content of the doctoral (DSc) dissertation abstract**

**Rajapov Shuxrat Zaripbayevich**

O‘zbekistonda ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish metodologiyasini takomillashtirish..... 3

**Ражапов Шухрат Зарипбаевич**

Совершенствование методологии устранения двойного налогообложения в Узбекистане..... 41

**Rajapov Shuxrat Zaripbayevich**

Improvement of the methodology for eliminating double taxation in Uzbekistan..... 82

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 88

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**RAJAPOV SHUXRAT ZARIPBAYEVICH**

**O‘ZBEKISTONDA IKKIYOQLAMA SOLIQQA TORTISHNI BARTARAF  
ETISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fan doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

Fan doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2025.1.DSc/Iqt863 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portaliga ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

**Tursunov Bobur Ortikmirzayevich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Raxmanov Dilshod Alidjanovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Tuxliyev Bozor Karimovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

**Toshkent Kimyo xalqaro universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.1.16.01 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil "23" 10 soat 19<sup>00</sup> da majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin 1783 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "10" 10 kuni tarqatildi.

(2025 yil "10" 10 da 85 raqamli reestr bayonnomasi).



**S.U.Mexmonov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, i.f.d., professor

**E.V.Gafurov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
kotibi, i.f.d., professor

**N.B.Abdusalomova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari  
i.f.d., professor

## KIRISH (fan doktori ((DSc) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon iqtisodiyotida ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish metodologiyasini takomillashtirish xalqaro investitsiya va savdo munosabatlarini rag'batlantirish, kapital harakatini erkinlashtirish, transmilliy kompaniyalarning faoliyatini moliyaviy xavfsizlik bilan ta'minlash, soliq yukini optimallashtirish hamda soliq organlari o'rtasida o'zaro axborot almashinuvini kuchaytirish orqali global iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ushbu metodologiyani takomillashtirishda soliq yurisdiksiyalari o'rtasidagi avtomatlashtirilgan axborot almashinuvi, BEPS (Base Erosion and Profit Shifting) dasturlari, rezidentlik mezonlarini aniqlash, mulk huquqlarini soliqqa tortishda shaffoflikni ta'minlash hamda transfer narxlarni nazorat qilish instrumentlaridan samarali foydalanish xalqaro soliq adolatini ta'minlashning hal qiluvchi omiliga aylanmoqda. Buni iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zo davlatlar, shuningdek, "soliq masalalari bo'yicha o'zaro ko'ptomonlama ma'muriy yordam to'g'risidagi Konvensiyalar ishtirokchisi bo'lgan 120 tadan ortiq mamlakat va yuridiksiyalarning, ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etishni oldini olish bo'yicha soliqqa oid kelishuvlarida ko'rish mumkin. Buning asnosida ko'p tomonlama Konvensiya muhokamasini hal qiladigan chora-tadbirlar borasida 1360 ta shartnoma imzolangan va bunga ikkiyoqlama soliq munosabatlariga ega 80 ta davlat va yuridiksiyalar tomonidan alohida e'tibor berilmoqda"<sup>1</sup>. Shu nuqtayi nazardan, ikkiyoqlama xalqaro soliqqa tortish muammolarini bartaraf etish butun dunyo bo'ylab soliq tizimlarning o'zaro ta'siri orqali amalga oshirilishi bo'yicha metodologik asoslarni ishlab chiqish borasida qator vazifalar qo'yilmoqda.

Jahonda ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari sifatida xalqaro soliq bitimlarini standartlashtirish, BEPS (Base Erosion and Profit Shifting) tashabbuslari doirasida daromad manbasi va rezidentlik o'rtasidagi yurisdiksiya kolliziyalarini bartaraf etish, transfer narxlarning bozor tamoyillariga muvofiqligini ta'minlash, raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq yurisdiksiyasini aniqlash mexanizmlarini yangilash, avtomatlashtirilgan axborot almashinuv tizimlarini (AEOI, CbCR) joriy etish hamda soliq shaffofligini oshirish orqali soliq adolatini ta'minlash kabi yo'nalishlar alohida ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur tadqiqotlar xalqaro soliq tizimini mustahkamlash, ko'p tomonlama manfaatlarni muvozanatlash va transmilliy faoliyatda soliq xatarlarini kamaytirishni maqsad qiladi.

O'zbekistonda ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish metodologiyasini takomillashtirish xalqaro tajriba va trendlar bilan uyg'unlashgan holda amalga oshirilmoqda. 2020-yildan boshlab soliq ma'muriyatchiligida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali xalqaro soliq shaffofligini oshirishga e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, OECD BEPS standartlariga muvofiq soliq bitimlarini qayta ko'rib chiqish va ularni zamonaviy talablarga moslashtirish

---

<sup>1</sup> OECD on tax – By the numbers, <https://www.oecd.org/>

zarurligi belgilab olindi. Global tendensiyalarni hisobga olgan holda, O'zbekistonda ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish metodologiyasini takomillashtirish uchun tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'lib, bunda asosan xalqaro soliq shartnomalarini OECD va UN Model Tax Convention asosida qayta ko'rib chiqish, raqamli iqtisodiyot sharoitida ikkiyoqlama soliqqa tortishga oid yangi mexanizmlarni joriy etish va korporativ soliqlar bo'yicha BEPS standartlarini to'liq tatbiq etish hamda tadbirkorlar va investorlar uchun ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etishga oid normativ-huquqiy ma'lumotlarning shaffofligini oshirishdan iborat. O'zbekistonda ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish metodologiyasini takomillashtirish milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va xalqaro savdo munosabatlarini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, bu jarayonda xalqaro tajriba va standartlardan foydalanish samaradorligini oshirishga imkoniyat beruvchi metodologik asoslarga bo'lgan ehtiyoj yuqorilgicha qolmoqdaki, bu boradagi ilmiy tadqiqotlarga ustuvorlik berishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktyabrdagi PF-157-son "Raqamlashtirish sohasida eksport faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalarni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2021-yil 7 sentyabrdagi PF-6306-son "Eksportchi korxonalarni rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-son "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2021-yil 13-iyuldagi PQ-5184-son "Eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish to'g'risida", 2019-yil 10-iyuldagi PQ-4389-son "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari, 2018-yil 13-fevraldagi F-5214-son "Soliq qonunchiligini tubdan takomillashtirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoyishi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi 166-son "2021-2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublikada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiyaning mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi.** Jahon hamjamiyatida xalqaro tashkilotlar bu jarayonni tahlil qilib, maslahat xususiyatiga ega bo'lgan tavsiyalarni berib bormoqda, xuddi shu yo'nalishda xalqaro tashkilotlari tomonidan bu boradagi ilmiy tadqiqotlar izchillik bilan olib borilmoqda. Jumladan, World Bank, International Monetary Fund (AQSh),

Development Research Group, Federal Reserve System, Office of Financial Research, Bank for International Settlements (Shveysariya), American Enterprise Institute for Public Policy Research (AQSh), Action Plan on Base Erosion and Profit Shifting (BEPS), United States Gets an F, Tax Policy Outlook (AQSh), FATF (Financial Action Task Force on Money Laundering), CRA (Canada), Columbia University (AQSh), Institut ekonomicheskiiy politiki (Rossiya), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT), IRS (Internal Revenue Service, AQSh), Finansovyy universitet pri Pravitelstve Rossiyskoy Federasii (Rossiya), O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tomonidan amalga oshirilmoqda.

Jahon amaliyotida qabul qilingan me'yoriy hujjatlar, dasturlar va alohida olingan ilmiy tadqiqotlar doirasida ayrim ilmiy natijalar olingan. Jumladan, "To'g'ridan-to'g'ri soliqlar (daromadlar va mol-mulk bo'yicha) sohasida ikki tomonlama soliqqa tortishni bartaraf etish to'g'risidagi konvensiya", "Meros soliqlari bo'yicha ikki tomonlama soliqqa tortishni bartaraf etish to'g'risidagi konvensiya", "Ma'muriy huquqbuzarliklarni ta'minlash to'g'risidagi konvensiya", "Soliq masalalarida yordam berish, soliqlarni undirishda huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risidagi konvensiya" va shu kabilarni keltirish mumkin. Xalqaro soliq uyushmasi (International Fiscal Association) doirasidagi tahlillarda davlatlar o'rtasidagi bitimlar doirasida soliqdan qochish holatlarini bartaraf etishning samaradorligi bilan tadqiqotlar e'lon qilib borilmoqda.

Ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish masalasini xalqaro darajada tartibga solishdagi tendensiyalardan kelib chiqqan holda, O'zbekistonda ham ushbu sohani isloh qilishda xalqaro huquqiy tashkilotlar – jumladan, Xalqaro sud, Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi va Yevropa ittifoqi Adliya sudi kabi organlar faoliyatidan olingan tajriba muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu tashkilotlar orqali davlatlararo soliq kelishuvlarining ijrosini nazorat qilish, huquqiy mexanizmlar orqali transchegaraviy moliyaviy munosabatlarda yuzaga kelayotgan nizolarni hal qilish, hamda soliq yukini adolatli taqsimlashga xizmat qiluvchi xalqaro normativ hujjatlar doirasida hamkorlik olib borilmoqda. Bunday yondashuvlar O'zbekistonning xalqaro soliq munosabatlaridagi ishtirokini kuchaytirish, tadbirkorlar va investorlarning huquqlarini himoya qilish, hamda byudjetga tushumlarni optimallashtirish imkoniyatini beradi. Shu bois, ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish metodologiyasini takomillashtirishda xalqaro huquqiy amaliyotni tahlil qilish va milliy qonunchilikni ushbu mezonlar asosida uyg'unlashtirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish metodologiyasini takomillashtirish masalasining ilmiy-nazariy va amaliy jihatlarini ya'ni ikkiyoqlama soliqqa tortish muammosi va uning bartaraf etish usullari A.Pogorleskiy, S.Reuven, Avi-Yonah, L.Richard, M.Doernberg, A. Miller, Lynne Oats, Roy Saunder, Miles Dead, Richard Williams, Diana Van Der Merve, Michael Kobetsky, A.Shaxmametyev, Ye.Tolstopiyatenko, I.Laryutina, V.Turoveskiy, M.Kobzar-Frolova, M.Denisayev, I.Agayeva, A.Fokin kabi xorijlik iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida atroflicha tadqiq

qilingan. Ular o'z asarlarida xalqaro soliq munosabatlari, ikkiyoqlama soliqqa tortishni kamaytirish usullari va davlatlararo soliq kelishuvlarining huquqiy asoslarini tahlil qilganlar<sup>2</sup>.

Ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish masalasiga oid O'zbekistondagi soliq munosabatlarning nazariy va huquqiy jihatlarini Sh.Toshmatov, N.Qo'ziyeva, A.Shernayev, A.Musagaliyev, I.Ergashev, Sh.Sobirov, J.Urmonov, A.Jo'rayev, B. Toshmurodova, S. Elmirzayev, U.Pardayev, M.Mirzayev va I.Turaboyev, S.Xudoyqulov, Q.Xoshimov va kabi iqtisodchi olimlarning tadqiqotlarida keng yoritilgan. Ularning ilmiy ishlarida O'zbekistonda ikkiyoqlama soliqqa tortishning umumiy masalalari hamda soliq siyosatidagi tutgan o'rni tahlil qilingan<sup>3</sup>.

Ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish jarayoni xalqaro soliqqa tortish tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida ilmiy tadqiqotlarga asos qilib olingan. Shu bilan birga, mahalliy olimlar tomonidan bu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar nisbatan cheklangan bo'lib, asosan, muammoning nazariy va huquqiy jihatlariga e'tibor qaratilgan. Masalan, S.Xudoyqulov o'z tadqiqot ishida, "Soliq siyosatini baholovchi ko'rsatkichlar sifatida, davlat miqyosida boshqa davlatlar bilan ikkiyoqlama soliqqa tortishning oldini olishga qaratilgan xalqaro shartnomalarning soni va ularni amal qilish darajasi yuzasidan davlatlarning xalqaro darajadagi soliq siyosatining samaradorligi izohlab berilgan"<sup>4</sup> Q.Xoshimov va N.Qo'ziyeva o'z tadqiqot ishlarida chet el investitsiyalari ishtirokidagi va

---

<sup>2</sup>Погорлецкий А.И. "Международное налогообложение", Изд-во Михайлова В. А., 2006.-384 с., Reuven S. Avi-Yonah, "Double Tax Treaties: An Introduction." In The Effect of Treaties on Foreign Direct Investment: Bilateral Investment Treaties, Double Taxation Treaties and Investment Flows, edited by K. P. Sauvant and L. E. Sachs, 99-106. Oxford: Oxford Univ. Press, 2009.; Richard L. Doernberg, Overriding tax treaties: The USA Perspective, 9 Emory Int'l L.Rev.71.71(1995).; Angharad Miller, Lynne Oats, Principles of International Taxation: Fourth Edition 4th Revised edition by Miller, Angharad, Oats, Lynne (2014) Paperback Paperback – 1 Jan. 1601.; Roy Saunderson, Understanding Double Tax Treaties, International Business Structuring Association (2014), Article 14. Published online: 31 July 2014, available at <http://www.istructuring.com/knowledge/article/understanding-double-tax-treaties/> (last access: 11 May 2017); Miles Dead, Richard Williams, Deloitte Discovery Global Leader., Features – A Challenging Move on the International Stage: Zero Withholding on Direct Dividends in the New US-UK Tax Treaty., Michael Kobetsky, International Taxation of Permanent Establishments Principles and Policy. Australian National University College of Law. 2011.

<sup>3</sup>Toshmatov Sh.A. Korxonalarni rivojlantirishda soliqlarning roli. Monografiya. -T.: Fan va texnologiya, 2008. -204 b.; Shernayev A.A. Davlat byudjeti solikli daromadlarining o'rta muddatli istiqbolini belgilash masalalari. i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. -T.: BMA, 2009. -20 b.; Musagaliyev A.J. Yuridik shaxslarni soliqqa tortishni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari. i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. -T.: BMA, 2009. -23 b.; Ergashev I.O. Milliy bozorni himoyalashda aksiz solig'ini hisoblash uslubi yotini takomillashtirish. i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. -T.: BMA, 2011. -22 b.; Sobirov Sh.M. Foyda solig'i va uning tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy faoliyatiga ta'siri. i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. -T.: BMA, 2008. -20 b.; Urmonov J.J. Kichik biznesni rivojlantirishda soliqlarning rag'batlantirish funksiyasidan samarali foydalanish istiqbollari. i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. -T.: BMA, 2010. -23 b.; Jo'rayev A.S. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo'llari. - T.: Fan, 2004. - 224 b.; Toshmurodova B.E. Soliqlar vositasida iqtisodiyotni boshqarish mexanizmi. - T.: Yangi asr avlodi, 2002. - 128 b. Elmirzayev S. Korporativ moliyani boshqarishda soliq munosabatlari samarali tashkil etish masalalari. Monografiya. T.: 2017. 153 b. Pardayev U.O'. Davlat byudjetini prognozlashtirish uslubi yotini takomillashtirish. iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi avtoreferati. T.: 2018-y. Mirzayev M. Soliq yig'iluvchanligini hisoblashning uslubi yoti va amaliyoti. [www. Biznes-daily.uz/ru/birjaexpert.15687/](http://www.Biznes-daily.uz/ru/birjaexpert.15687/). Turaboyev I. O'zbekiston Respublikasi norezident yuridik shaxslariga soliq solishning huquqiy asoslarini takomillashtirish. yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. -T.: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi, 2019. -45 b.

<sup>4</sup> Xudoyqulov S.K., Abdurasulov A.A., Xonto'rayev B.A. "Soliq nazariyasi". Darslik -T.: "Iqtisodiyot", 2020. -307 b.



qo'shma korxonalarni soliqqa tortish masalalarini o'rgangan. Shuningdek, I.Turaboyev tomonidan O'zbekistonda norezident yuridik shaxslarga soliq solishning huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha taklif va xulosalar berilgan. Biroq, ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish metodologiyasini takomillashtirish masalasi haligacha mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan mustaqil tadqiqot obyekti sifatida chuqur o'rganilmagan. Bu esa sohada mavjud muammolarni bartaraf etish uchun fundamental tadqiqotlar olib borish zarurligini namoyon etadi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy barqarorligi va prognozlashtirilishini ta'minlashning ilmiy-uslubiy asoslari va uslubiyatlarini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O'zbekistonda ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etishga qaratilgan metodologik muammolari va ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etishning ijtimoiy-iqtisodiy zarurligini asoslab berish;

ikkiyoqlama soliqqa tortish munosabatlarini yuzaga kelishining ijtimoiy-iqtisodiy omillarini ko'rsatib berish;

ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish metodologiyasiga oid ilmiy-nazariy yondashuvlarni ilmiy tahlil qilgan holda uning mualliflik ta'rifni ishlab chiqish;

ayrim davlatlar va soliq to'lovchilar doirasida ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish holatlari bilan amaliy holatini tahlil qilish;

soliq to'lovchilarda ikkiyoqlama soliqqa tortish holatlariga sabab bo'luvchi omillarning ijtimoiy-iqtisodiy sabablarini amaliy jihatdan tahlil qilish, tegishli ilmiy xulosalarni shakllantirish;

respublikamiz soliq tizimida ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etishni turli ko'rinishlarini ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilish va ilmiy xulosalarni shakllantirish;

elektron xizmatlardan olinadigan daromadlarni hisobga olishni avtomatlashtirilgan tizimi va ikkiyoqlama soliqqa tortish jarayonlarini bilan bog'liqlikni amaliy holatini ko'rsatib berish;

ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish modelini xorij tajribasini o'rganish asosida ilg'or tajribalarni respublikamiz soliq amaliyotida foydalanish yo'llarini ko'rsatib berish;

soliq tizimida yuridik va jismoniy shaxslarni soliq rezidentligini tasdiqlash jarayonlarini metodologik muammolarni ko'rsatish berish va uning metodologik asoslarini ishlab chiqish;

O‘zbekistonda soliq to‘lashni yengillashtirish uchun xalqaro shartnomalarga muvofiq soliq stavkasini paysatirilgan stavkani belgilash jarayonlarini ko‘rsatib berish va uni yanada takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;

norezidentlar tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlarning bozor qiymatini aniqlashda ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf metodologiyasini takomillashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlash;

ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etishning umumiy metodologiyasini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** O‘zbekistonda xalqaro soliq shartnomalari qoidalarini, shuningdek, xalqaro shartnomalar normalarini milliy qonunchilikka kiritish tartib-taomillari hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** milliy soliq qonunchiligi va xalqaro soliq shartnomalari qoidalarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishda vujudga keluvchi iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada ilmiy bilimning umumiy usullari: tizimli tahlil, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, qiyosiy va dinamik tahlil, taqqoslash, umumlashtirish, statistik kuzatish, ma’lumotlarni yig‘ish va guruhlash, umumlashtirish ko‘rsatkichlarini hisoblash usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

xalqaro shartnomada asbob-uskunalariga oid xizmatlar qiymati alohida ko‘rsatilmagan holatda norezidentning soliqqa tortiladigan daromadi bozor qiymati asosida aniqlanishi, shuningdek, norezidentlar tomonidan O‘zbekiston hududida montaj, o‘rnatish yoki ishga tushirish-sozlash ishlari amalga oshirilganda, hatto shartnomada bu ko‘rsatilmagan bo‘lsa ham, mazkur qoidalar tatbiq etilishiga oid taklif asoslangan;

norezidentlar doimiy muassasa orqali faoliyat yuritgan holatlarda ularning dividendlardan olinadigan daromadlariga xalqaro shartnomada belgilangan eng past soliq stavkasini qo‘llash huquqiga ega bo‘lishi, agar xalqaro shartnomada bir nechta pasaytirilgan soliq stavkalari nazarda tutilgan holatda eng past darajada belgilangan stavkaning qo‘llanilishi taklif etilgan;

elektron shaklda xizmat ko‘rsatuvchi chet el yuridik shaxsi tomonidan belgilangan muddatda soliq organiga hisobga qo‘yish yuzasidan ariza taqdim etilmagan holatda unga yuborilgan rasmiy xabarnomaga asosan o‘ttiz kun muddatda soliq organida hisobga qo‘yish to‘g‘risida ariza taqdim etilmasligi mazkur chet el yuridik shaxsining faoliyati respublika hududida cheklab qo‘yilishiga asos bo‘lishi bo‘yicha taklif ishlab chiqilgan;

to‘lanayotgan daromadlarga nisbatan haqiqiy huquqqa ega bo‘lgan shaxs O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidenti bo‘lgan holatda to‘lanayotgan daromadga soliq solinishida to‘lov manbai o‘zi hisobga olingan joydagi soliq organini xabardor qilgan bo‘lsa, to‘lov manbai tomonidan ushlab qolinmaslik tartibini joriy etish asosida xalqaro shartnomalar orqali soliq yukini kamaytirish va investisiya oqimini ko‘paytirish taklifi asoslangan;

haqiqiy daromad oluvchi shaxs O‘zbekiston Respublikasi bilan xalqaro shartnoma mavjud bo‘lmagan davlat rezidenti hisoblangan holatda milliy

qonunchilikda belgilangan stavka bo'yicha soliq solinishi hamda haqiqiy benefisiar ma'lum bo'lmaganda to'lov manbaida soliq ushlab qolish bo'yicha taklifi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

Soliq kodeksining 351-moddasida xalqaro shartnomada asbob-uskunalariga oid xizmatlar qiymati alohida ko'rsatilmagan bo'lsa, norezidentning soliqqa tortiladigan daromadi bozor qiymati asosida aniqlanishi, shuningdek, norezidentlar O'zbekiston hududida montaj, o'rnatish yoki ishga tushirish-sozlash ishlarini amalga oshirsa, hatto shartnomada bu ko'rsatilmagan bo'lsa ham, mazkur qoidalar tatbiq etilgan;

Soliq kodeksining 347-moddasida norezidentlar doimiy muassasa orqali faoliyat yuritgan holatlarda ularning dividendlardan olinadigan daromadlariga xalqaro shartnomada belgilangan eng past soliq stavkasini qo'llash huquqiga ega bo'lishi, agar xalqaro shartnomada bir nechta pasaytirilgan soliq stavkalari nazarda tutilgan holatda eng past darajada belgilangan stavkaning qo'llanilishi byelgilangan;

Soliq kodeksining 279-moddasida elektron shaklda xizmat ko'rsatuvchi chet el yuridik shaxsi tomonidan belgilangan muddatda soliq organiga hisobga qo'yish yuzasidan ariza taqdim etilmagan holatda unga yuborilgan rasmiy xabarnomaga asosan o'ttiz kun muddatda soliq organida hisobga qo'yish to'g'risida ariza taqdim etilmasligi mazkur chet el yuridik shaxsining faoliyati respublika hududida cheklab qo'yilishiga asos bo'lishi belgilab berilgan;

Soliq kodeksining 6-moddasida to'lanayotgan daromadlarga nisbatan haqiqiy huquqqa ega bo'lgan shaxs O'zbekiston Respublikasining soliq rezidenti bo'lgan holatda to'lanayotgan daromadga soliq solinishida to'lov manbai o'zi hisobga olingan joydagi soliq organini xabardor qilgan bo'lsa, to'lov manbai tomonidan ushlab qolinmaslik tartibini joriy etish asosida xalqaro shartnomalar orqali soliq yukini kamaytirish va investitsiya oqimini ko'paytirish belgilab berilgan;

Soliq kodeksining 6-moddasida haqiqiy daromad oluvchi shaxs O'zbekiston Respublikasi bilan xalqaro shartnoma mavjud bo'lmagan davlat rezidenti hisoblangan holatda milliy qonunchilikda belgilangan stavka bo'yicha soliq solinishi hamda haqiqiy benefisiar ma'lum bo'lmaganda to'lov manbaida soliq ushlab qolish belgilab berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchiligi.** Tadqiqot ishini tayyorlashda O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlaridan foydalanilganligi, ishda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi tomonidan joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Dissertatsiya ishi natijalarining ilmiy ahamiyati ulardan O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasida belgilangan asosiy yo'nalishlarni amalga oshirishda, shuningdek, O'zbekistonda ikkiyoqlama soliqqa tortishni

bartaraf etish metodologiyasini takomillashtirishga qaratilgan keyingi ilmiy tadqiqot ishlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ilmiy tadqiqot doirasida olingan ilmiy xulosa va ilmiy-amaliy takliflardan respublikada soliqdan qochish oldini olish va uni kamaytirishga oid jarayonlarni takomillashtirishning metodologik asoslarini takomillashtirishda va bunga oid oid me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va ularni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O'zbekistonda ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

xalqaro shartnomada asbob-uskunalarga oid xizmatlar qiymati alohida ko'rsatilmagan holatda norezidentning soliqqa tortiladigan daromadi bozor qiymati asosida aniqlanishi, shuningdek, norezidentlar tomonidan O'zbekiston hududida montaj, o'rnatish yoki ishga tushirish-sozlash ishlari amalga oshirilganda, hatto shartnomada bu ko'rsatilmagan bo'lsa ham, mazkur qoidalar tatbiq etilishiga oid taklif Soliq kodeksining 351-moddasida tasdiqlanib, amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi soliq qo'mitasining 2023 yil 14 martdagi 26/1-31075-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida soliq xizmati organlari tomonidan bu jarayon natijasi yuzasidan soliq to'lovchilar bilan o'zaro hisob-kitob qilishning qulay imkoni yaratilgan;

norezidentlar doimiy muassasa orqali faoliyat yuritgan holatlarda ularning dividendlardan olinadigan daromadlariga xalqaro shartnomada belgilangan eng past soliq stavkasini qo'llash huquqiga ega bo'lishi, agar xalqaro shartnomada bir nechta pasaytirilgan soliq stavkalari nazarda tutilgan holatda eng past darajada belgilangan stavkaning qo'llanilishi taklifi Soliq kodeksining 347-moddasiga kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi soliq qo'mitasining 2023 yil 14 martdagi 26/1-31075-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida chet ellik investorlar va kompaniyalar o'z dividend daromadlariga eng past soliq stavkasini qo'llash orqali soliq xarajatlarini minimallashtirish imkoni yaratilgan;

elektron shaklda xizmat ko'rsatuvchi chet el yuridik shaxsi tomonidan belgilangan muddatda soliq organiga hisobga qo'yish yuzasidan ariza taqdim etilmagan holatda unga yuborilgan rasmiy xabarnomaga asosan o'ttiz kun muddatda soliq organida hisobga qo'yish to'g'risida ariza taqdim etilmasligi mazkur chet el yuridik shaxsining faoliyati respublika hududida cheklab qo'yilishiga asos bo'lishi bo'yicha taklif Soliq kodeksining 279-moddasida tasdiqlangan va amaliyotga joriy etilgan. (O'zbekiston Respublikasi soliq qo'mitasining 2025 yil 27 fevraldagi 16/1-25143-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida soliq ma'murchiligining takomillashtirish hamda soliq bazasini kengaytirish imkoni yaratilgan;

to'lanayotgan daromadlarga nisbatan haqiqiy huquqqa ega bo'lgan shaxs O'zbekiston Respublikasining soliq rezidenti bo'lgan holatda to'lanayotgan daromadga soliq solinishida to'lov manbai o'zi hisobga olingan joydagi soliq organini xabardor qilgan bo'lsa, to'lov manbai tomonidan ushlab qolinmaslik

tartibini joriy etish asosida xalqaro shartnomalar orqali soliq yukini kamaytirish va investisiya oqimini ko'paytirish taklifi Soliq kodeksining 6-moddasida tasdiqlanib, amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi soliq qo'mitasining 2023 yil 14 martdagi 26/1-31075-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalar orqali soliq yukini kamaytirishga va investisiya oqimini ko'paytirish imkoni yaratilgan;

haqiqiy daromad oluvchi shaxs O'zbekiston Respublikasi bilan xalqaro shartnoma mavjud bo'lmagan davlat rezidenti hisoblangan holatda milliy qonunchilikda belgilangan stavka bo'yicha soliq solinishi hamda haqiqiy benefitsiar ma'lum bo'lmaganda to'lov manbaida soliq ushlab qolish bo'yicha taklifi Soliq kodeksining 6-moddasida tasdiqlangan (O'zbekiston Respublikasi soliq qo'mitasining 2023 yil 14 martdagi 26/1-31075-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida ushbu qoida xalqaro amaliyotda qo'llaniladigan «eng quyi stavka» prinsipi bilan muvofiqlashadi, bu esa O'zbekistonning soliq siyosati xalqaro standartlarga muvofiq bo'lishini ta'minlash imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatyasi.** Tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 2 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan va ma'qullangan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi natijalari bo'yicha jami 1 ta monografiya, 15 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, 12 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda maqola nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 235 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Dissertatsiyaning **kirish** qismida ilmiy tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, tanlangan mavzuning xorijiy ilmiy tadqiqotlardagi sharhi keltirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ikkiyoqlama soliqqa tortish munosabatlarni shakllantirishning ijtimoiy-iqtisodiy zarurligi va ahamiyati”** deb nomlangan birinchi bobida ikkiyoqlama soliqqa tortish munosabatlarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati ochib berilgan, ikkiyoqlama soliqqa tortish munosabatlarining shart-sharoitlari va konseptual-ijtimoiy asoslari keltirilgan, ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etishning iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlari ilmiy asoslangan, ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish metodologiyalariga oid ilmiy tadqiqot ishlari nazariy tahlil qilingan, ularga mualliflik ilmiy yondashuvlari keltirilgan. Bundan tashqari,

jahon xo‘jaligida ikki yoqlama soliqqa tortish jarayonlarini tartibga solish va muvofiqlashtirishni taqozo etuvchi omillar o‘rganilgan.

O‘zbekistonning xalqaro iqtisodiy munosabatlari va investitsiyalar faoliyati kengaygan paytda, ikkiyoqlama soliqqa tortish masalalari ahamiyati juda muhim hisoblanmoqda. Bu masala, ayniqsa, soliqlar bo‘yicha ikki davlat o‘rtasida kelishuvlar yoki soliq tartiblaridagi o‘zgarishlar olib kelishi mumkin. Keyingi davrlarda O‘zbekistonning ikkiyoqlama soliqqa tortish siyosati, tashqi iqtisodiy faoliyatning kengayishi bilan bog‘liq muammolar va u bilan bog‘liq soliq siyosatining samaradorligiga ta‘sir ko‘rsatdi. Ikkiyoqlama soliqqa tortish bilan bog‘liq muammo, mamlakatlar o‘rtasida soliqlarning oshirilishiga olib keladigan kelishuvlar yetishmasligidir. O‘zbekistonning xalqaro soliq kelishuvlari ko‘p hollarda chet el investorlari va tadbirkorlarining soliq yuklarini kamaytirish uchun yaratilayotgan imkoniyatlariga to‘sqinlik qiladi. Bu holatning natijasi, bevosita ikkiyoqlama soliqqa tortishda soliq yuklarining yuqori darajadali o‘rganilmaganligidan dalolat beradi.

Ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish muammosini bartaraf etish usullari va uning iqtisodiy ta‘sirini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, 1-rasmdagi beshta asosiy yo‘nalish orqali muammoning asosiy yo‘nalishlarini taqdim etamiz va har bir yo‘nalish va unga bog‘liq elementlarni tahlil qilib chiqamiz.



**1-rasm. Ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish metodologiyasining asosiy yo‘nalishlar tavsifi<sup>5</sup>.**

Ikkiyoqlama soliqqa tortish holati jismoniy yoki yuridik shaxslar bir xil daromad uchun ikki yoki undan ortiq davlatda soliq to‘lashga majbur bo‘lganida yuzaga keladi. Buni shartnomalar orqali bartaraf etish soliq shartnomalari, davlatlar o‘rtasida tuziladigan ikkiyoqlama yoki ko‘p tomonlama shartnomalar hisoblanib, bundan maqsad, bir xil daromadga ikki davlatda soliq solinishining oldini olish muhim ahamiyat kasb etadi. Soliq shartnomalari orqali rezident shaxs uchun soliq majburiyatlarini qisqartirish mumkin va daromad yoki mulkka nisbatan qo‘shma soliqlarning oldi olinadi. Soliq kompensatsiyasi orqali soliq kreditlari beriladi va bir mamlakatda to‘langan soliq miqdori boshqa mamlakatda

<sup>5</sup> Muallif tomonidan tayyorlandi.

hisobga olinishi hamda soliq to'lovchi ikki davlatda ham soliq to'lash majburiyatidan qutiladi yoki qisman to'laydi.

Jahon moliya xo'jaligi integratsiyasining shakllanishi va rivojlanishida ikkiyoqlama soliq tortish quyidagi muammolari mavjud holatlarda yuzaga keladi:

xalqaro soliq huquqi xalqaro ikkiyoqlama soliq solishni taqiqlovchi normalarni o'zida mujassamlashtirmaganligi va har qanday davlat o'z hududida milliy qonunchiligi asosida soliq undirish huquqiga ega ekanligi;


xalqaro ikkiyoqlama soliqqa tortish ham xalqaro iqtisodiy holatda (turli subyektlar jami daromad bo'yicha soliqqa tortiladi), ham xalqaro yuridik holatda (bitta subyektning daromadi bittadan ko'p mamlakatda soliqqa tortiladi) ikkiyoqlama soliqqa tortishning yuzaga kelishi;

bir mamlakat rezidenti bo'lgan shaxsning boshqa mamlakatda to'lab beriladigan daromad solig'i masalasi ushbu ikki davlat qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Bunda har ikkala mamlakat ham o'z hududida o'zining milliy soliq qonunchiligi asosida soliqqa tortiladi, lekin soliqqa tortish masalasi chet el korxonalari ham tatbiq etishi inobatga olinmasdan qoladi;

bir mamlakat rezidenti manbasi boshqa mamlakatda joylashgan manbadan daromad oladi, mol-mulkka ega bo'ladi yoki bo'lmasa ma'lum bir faoliyatni amalga oshirib daromad oladi yohud soliqqa tortiladigan boshqa bir obyektga ega bo'lishi mumkin. Ushbu holatda chet el korxonasiga ikkiyoqlama soliq solish masalasi paydo bo'ladi.

Ko'rsatib o'tilgan holatlarga xarakterli bo'lgan xususiyat shundan iboratki, bir vaqtning o'zida ikkita yoki undan ko'proq davlatda bir shaxs soliq qonunchiligi bo'yicha soliq to'lovchi sifatida yoki bir obyekt soliq solish obyekti sifatida qaraladi.

Yuqorida keltirilgan muammolardan shuni aniqlash mumkinki, ikkiyoqlama soliqqa tortishning yuzaga kelish shart-sharoitlari davlatlar soliq qonunchiliklari uyg'unligining mavjud emasligidadir.



**2-rasm. Ikkiyoqlama soliqqa tortishning yuzaga kelish shart-sharoitlari<sup>6</sup>.**

<sup>6</sup> Muallif tomonidan tayyorlandi.

2-rasmda keltirilgan holatlar o'z navbatida milliy qonunchiliklarga ko'ra bir shaxsning bir nechta davlatlarda rezident deb tan olinishi, bir obyektning bir nechta davlatlarda soliqqa tortilishi, bir daromad manbaidan bir nechta davlatlarda soliq undirilishida ko'rishimiz mumkin. Ikkiyoqlama soliqqa tortishning paydo bo'lishi quyidagi holatlarga bog'g'liq hisoblanadi:

- shaxs bir davlat rezidenti bo'lib, boshqa davlatda daromad olsa yoki kapitalga ega bo'lsa, ikkala davlat ham ushbu daromad va kapitalni soliqqa tortilsa;
- bir nechta davlat bitta shaxsni oladigan barcha daromadi bo'yicha soliqqa tortilsa (bir vaqtning o'zida butunlay soliq majburiyatiga ega bo'lishi);
- bir nechta davlat ular birortasining rezidenti bo'lmagan shaxsni ushbu davlatda olgan daromadi bo'yicha soliqqa tortsa (bir vaqtda chegaralangan ikkiyoqlama soliqqa tortish) yuzaga keladi.

Shuning uchun bir vaqtda ikkiyoqlama soliqqa tortish hosil bo'lganda davlatlar o'rtasida rezidentlik prinsipiga asoslangan xalqaro shartnomalar imzolanadi. Biroq, yuqorida tilga olingan mualliflarning asarlarida ushbu tadqiqot mavzusi bilan bog'liq faqat individual jihatlar mavjud. O'zbekistonda ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish metodologiyasi qoidalarini qo'llash amaliyotini rivojlantirish masalalari haligacha har tomonlama ilmiy tahlildan o'tkazilmagan, bu esa tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilaydi. Olimlar o'z tadqiqotlarida turli metodologiyalarni taklif qilishgan, har biri o'z tomonidan bo'lgan yechimlarning samaradorligini ko'rsatmoqda. Bu fikrlar, xalqaro soliq muammolarini hal qilish va davlatlar o'rtasidagi soliq aloqalarini mustahkamlashga yordam beradi.

Olimlarning tadqiqot va fikrlaridan kelib chiqib, "ikkiyoqlama soliqqa tortish" va "ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish metodologiyasi"ga oid o'z fikrlarimizni bildirib o'tamiz.


Ikkiyoqlama soliqqa tortish - bir obyektga nisbatan va bir xil davr uchun bitta soliq to'lovchidan ikki (yoki undan ortiq) davlatlarda mos (bir xil yoki o'xshash) soliqlarning undirilishi hisoblanadi. Ikki yoqlama soliqqa tortish – xalqaro soliq huquqi termini bo'lib, ikki yoki undan ortiq davlat soliq qonunchiligiga ko'ra bitta shaxs soliq to'lovchi yoki bitta obyekt soliq solish obyekti sifatida qaralishidir.

Ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish metodologiyasi - xalqaro soliq shartnomalari (DTCs) mavjud bo'lib, bu shartnomalar ikki davlat o'rtasida soliqlarning o'zaro tan olinishi va soliq ta'riflari bo'yicha kelishuvlarga asoslanadi. Ushbu shartnomalarning asosiy maqsadi ikkiyoqlama soliqqa tortishning oldini olish va daromadlarni haqiqiy manbaga qarab tartibga solishdir. Har bir davlat o'zining soliq tizimini va siyosatiga asoslangan holda shartnomalar tuzishga harakat qiladi.

Xalqaro shartnomalarda asbob-uskunalariga oid xizmatlar qiymati alohida ko'rsatilmagan holatlarda norezidentlarning soliqqa tortiladigan daromadini bozor qiymati asosida aniqlash, shuningdek norezidentlar tomonidan O'zbekiston hududida bajarilgan montaj, o'rnatish yoki ishga tushirish-sozlash ishlariga



nisbatan (shartnomada ko'rsatilmagan bo'lsa ham) ushbu tartibni tatbiq etish yondashuv ikkiyoqlama soliqqa tortish tizimini mukammallashtiradi va ijtimoiy-iqtisodiy afzalliklarni mihim hisoblanadi. Bunda soliq bazasini aniqlashtiradi va daromadni yashirish imkoniyatlari kamayadi. Adolatli soliqqa tortishni ta'minlaydi va norezidentlar mahalliy subyektlarga nisbatan imtiyozli sharoitda bo'lmaydi. Davlat byudjeti tushumlarini barqaror oshiradi, bu esa ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirishga xizmat qiladi. Xalqaro iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlaydi, chunki shartnomalar bozor tamoyillari asosida talqin qilinadi.



**3-rasm. Ikkiyoqlama soliqqa tortishda norezident daromadini bozor qiymati asosida aniqlash modeli <sup>7</sup>.**

Bu rasmda soliqqa tortilmagan yoki kam ko'rsatilgan montaj/o'rnatish xizmatlari davlat byudjeti uchun yo'qotishlarga olib keladi. Bozor qiymati asosida baholash bu yo'qotishlarni bartaraf etadi va davlatga barqaror tushum manbai yaratadi. Mahalliy kompaniyalar ko'pincha barcha soliqlarni to'liq to'laydi, norezidentlar esa shartnomalarda xizmat qiymatini ajratmaslik orqali soliqdan bo'yin tovlash holatlariga yo'l qo'yadi. Bu mexanizm nomutanosiblikni bartaraf etadi. Aniq va shaffof soliq qoidalari xorijiy investorlar uchun huquqiy aniqlik yaratadi. Bu uzoq muddatli investitsiyalar va texnologik transferlarni rag'batlantiradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish metodologiyasi xalqaro tajribasini O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari”** deb nomlangan bo'lib, unda ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etishni AQSH tajribasi ilmiy izohlangan, soliqlarni hisoblash usullari qo'llash orqali ikkiyoqlama soliqqa tortishga qarshi kurashishning Yevropa davlatlari amaliyoti ko'rsatib berilgan, xalqaro investitsiyalarni muvofiqlashtirishda

<sup>7</sup> Muallif tomonidan tayyorlandi.

ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish mexanizmlaridan foydalanishning Osiyo mamlakatlar tajribasining iqtisodiy-huquqiy yo‘nalishlari ilmiy tahlil qilingan.

AQSHda ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etishda soliq krediti eng keng tarqalgan metod hisoblanadi. Bu usul orqali chet elda to‘langan soliq to‘liq yoki qisman AQSHdagi soliqlardan hisobdan chiqariladi. Agar mamlakat bilan ikki tomonlama shartnoma tuzilgan bo‘lsa, unda maxsus qoidalar amal qiladi. AQSH xalqaro amaliyotda “jahon daromadi” tamoyili asosida ish tutadi, ya’ni fuqarolar qaysi davlatda daromad olmasin, soliq to‘lash majburiyati saqlanadi. Shu bois, metodlarning aniq qo‘llanishi o‘ta muhim. 1-jadvalda AQSHda ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etishga oid metodlarini tahlil qilganmiz.

Ushbu jadvalda xalqaro miqyosda ikkiyoqlama soliq tortishini bartaraf etishda qo‘llaniladigan to‘rtta asosiy usul tahlil qilingan bo‘lib, har bir usulning mohiyati, afzalliklari va qo‘llanilish sohalari qisqacha ifodalangan. AQSH tajribasi asosida berilgan ushbu usullar umumdavlat soliq siyosatida muhim o‘rin tutadi. Endi ushbu usullarni tahlil qilib chiqamiz. Soliq krediti usulida (Foreign Tax Credit) AQSH fuqarosi chet elda to‘lagan soliq miqdori AQSHdagi soliqdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri chegiriladi. Bu nafaqat ikkiyoqlama soliq solinishini oldini oladi, balki yuqori daromadli shaxslar uchun soliq yukini sezilarli darajada kamaytiradi.

## 1-jadval


### AQSHda ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etishda qo‘llaniladigan asosiy metodlar<sup>8</sup>

№	Metod nomi	Qisqacha tavsifi	Afzalliklari	Qo‘llanish sohasi
1	Soliq krediti usuli (Foreign Tax Credit)	AQSH fuqarosi chet elda to‘lagan soliq miqdori AQSHdagi soliqlardan chegiriladi.	Soliq yukini pasaytiradi, takroriy soliqdan saqlaydi.	Yuqori daromadli shaxslar
2	Soliqdan ozod qilish (Exemption method)	Chet elda olingan daromad AQSHda soliqqa tortiladigan bazadan chiqarib tashlanadi	Soliq tizimini soddalashtiradi, ikkiyoqlama soliq to‘lash imkoniyatidan voz kechiladi.	Ikki tomonlama shartnomalarda
3	Soliqni hisobdan chiqarish (Deduction method)	Chet elda to‘langan soliqlar umumiy xarajat sifatida hisobdan chiqariladi	Mahalliy soliq majburiyatini qisman kamaytiradi	Ishbilarmon shaxslar
4	Soliq shartnomalari (Tax Treaties)	AQSH va boshqa davlatlar o‘rtasida tuzilgan bitimlar orqali daromad turlari bo‘yicha tartib belgilanadi	Soliqqa tortilishini aniq belgilaydi, rezidentlikni aniqlaydi	Barcha soliq to‘lovchilar

<sup>8</sup> Muallif tomonidan tayyorlandi.

Afzallik sifatida soliq yukining pasayishi va takroriy soliqdan saqlanish ko'rsatilgan. Shuning uchun bu usul asosan xalqaro faoliyat yuritadigan va katta daromadga ega bo'lgan shaxslar tomonidan qo'llaniladi. Soliqdan ozod qilish usulida (Exemption Method) chet elda olingan daromadni soliqqa tortiladigan bazadan chiqarishga asoslangan. Ya'ni, chet elda topilgan daromad AQSHdagi soliq hisob-kitobidan butunlay ozod etiladi. Bu soliq tizimini soddalashtiradi va ikkita yurisdiksiyada bir vaqtning o'zida soliq to'lashdan xalos etadi. Ushbu usul ko'pincha ikki tomonlama soliq shartnomalarida aks etadi, shuning uchun davlatlararo soliq munosabatlarini tartibga solishda muhim vosita hisoblanadi. Soliqni hisobdan chiqarish usulida (Deduction method) chet elda to'langan soliqlar umumiy xarajat sifatida hisobga olinib, mahalliy soliq bazasidan chiqariladi. Ammo bu to'g'ridan-to'g'ri chegirma emas, balki xarajat sifatida inobatga olinadi. Natijada, mahalliy soliq majburiyati biroz kamayishi mumkin, lekin bu usul yuqori daromadli fuqarolar uchun samarali emas. U asosan kichik tadbirkorlik subyektlari yoki ishbilarmon shaxslar tomonidan qo'llaniladi. Soliq shartnomalari usulida (Tax Treaties) xalqaro miqyosda eng ko'p qo'llaniladigan mexanizm bo'lib, davlatlar o'rtasida tuzilgan bitimlar orqali daromad turlari bo'yicha soliq solish tartibini belgilaydi. Bunday shartnomalar orqali soliqqa tortishning aniq belgilash, rezidentlikni aniqlash va ikkiyoqlama soliqni bartaraf etish kabi masalalar tartibga solinadi. Shu bois, bu usul barcha soliq to'lovchilar uchun dolzarb hisoblanadi. Ushbu usullar soliq yukini optimallashtirish, ikki yurisdiksiya o'rtasidagi soliq nizolarini kamaytirish va investitsiya muhitini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Har bir usulning afzalliklari va kamchiliklar mavjud. Masalan, soliq krediti yuqori daromadli fuqarolar uchun ma'qul bo'lsa, soliqdan ozod qilish sodda va qulaylikni ta'minlaydi. Soliqni xarajat sifatida hisoblash esa faqat qisman yengillik beradi. Soliq shartnomalari esa huquqiy jihatdan aniqlik va huquqiy kafolatlarni ta'minlaydi. Davlatlar ushbu usullardan o'zlarining soliq siyosatlari va xalqaro munosabatlariga qarab foydalanadilar.

AQSHda ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish bo'yicha usul va vositalarning taqsimoti 4-rasmda keltirilgan bo'lib, unda turli holatlarda qaysi yondashuvni tanlash maqsadga muvofiqligi aniq ko'rinadi. Umuman olganda, tanlov rezidentlik maqomi, daromadning manbai, to'langan chet el soliqlarining turi hamda ikki tomonlama soliq shartnomasining mavjudligiga bog'liq. Shu asosda amaliyotda qo'llanashda, agar AQSH rezidenti chet elda soliqqa tortilgan bo'lsa va ushbu daromad AQSHda ham soliqqa tortilishi nazarda tutilsa, odatda chet elda to'langan soliqni hisobga olish (kredit) usuli qo'llanadi. Bundan tashqari agar shartnoma ayrim daromad turlarini AQSHda soliqqa tortishdan ozod etishni nazarda tutsa, tegishli soliqdan imtiyoz (exemption) mexanizmi ishga tushadi. Hujjatlashtirish imkoniyati cheklangan yoki shartnoma qo'llanmaydigan vaziyatlarda esa chegirma (deduction) usuli yordamchi yechim sifatida tanlanishi mumkin. Rasmda tasnif qilingan vositalar, shuningdek, daromad turiga ko'ra qo'llash mezonlarini ham ko'rsatadi.



**4-rasm. AQSHda ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish usul va vositalarining qo'llanish darajasi (%)<sup>9</sup>.**

Yuqoridagi rasmda ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish usullaridan foydalanish tahlili keltirilgan bo'lib, unda soliq krediti usuli 60 foizni tashkil etmoqda. Bu eng ko'p qo'llaniladigan usul bo'lib, yuqori daromadli shaxslar tomonidan afzal ko'riladi, chunki u to'g'ridan-to'g'ri soliqdan chegirma berish imkonini beradi. Soliq yukini sezilarli darajada kamaytiradi. Uni tatbiq etish uchun aniq va to'g'ri hisob-kitoblar va soliq organlari o'rtasida axborot almashinuvi kerak bo'ladi. Bu uni samarali, biroq ayni paytda bu murakkab usulga hisoblanadi.

Bugungi kunda globallashtirish jarayonining kuchayishi, mehnat resurslari va kapitalning tranzitiga harakati ortgani sababli ikki yoki undan ortiq davlatlarda soliqqa tortilish ehtimoli kuchaydi. Bu esa, ayniqsa, Yevropa davlatlari uchun dolzarb masala hisoblanadi. Yevropa davlatlari o'z iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalar, ishchi kuchi va kompaniyalar faoliyatidan foyda olishni istagan holda, rezident va nerezident shaxslar uchun soliq yukini optimallashtirishga harakat qilmoqda.

Yevropa davlatlarida ikkiyoqlama soliqqa tortishga qarshi soliqlarni hisoblash usullari, odatda, xalqaro soliq bitimlari (double taxation agreement - DTA) orqali tartibga solinadi. Bu bitimlar rezident mamlakat fuqarosining boshqa mamlakatda oladigan daromadidan ikki marta soliq olishni oldini oladi.

Yevropa davlatlarida ikkiyoqlama soliqqa tortishga qarshi soliqlarni hisoblash usullari bo'yicha tahliliy ma'lumot tayyorlangan bo'lib, bu 2-jadvalda Yevropa davlatlarida ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish usullarini tahlil qilganmiz.

<sup>9</sup> Muallif tomonidan tayyorlandi.

**Yevropa davlatlarida ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish usullari<sup>10</sup>**

<b>Davlat</b>	<b>Qo'llaniladigan usul</b>	<b>Qisqacha tavsifi</b>	<b>Soliq shartnomasi soni</b>	<b>Afzalliklari</b>
<b>Germaniya</b>	Soliq kredit usuli	Rezident davlat chetda to'langan soliqni hisobga oladi.	91	Soliq yukini kamaytiradi
<b>Fransiya</b>	Soliqdan ozod qilish usuli	Fransiyada soliq solinmaydi, agar xorijda to'langan bo'lsa.	108	Soliqni ikki marta to'lashning oldi olinadi
<b>Italiya</b>	Qisman kredit va ozod qilish usuli	Ayrim daromadlar uchun kredit, ayrimlari uchun ozod qilish.	94	Moslashuvchanlik ta'minlanadi
<b>Ispaniya</b>	Soliq kredit usuli	Ispaniyada yashovchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun umumiy qo'llaniladi.	90	Soliq rezidentlarini qo'llab-quvvatlaydi
<b>Niderlandiya</b>	Ozod qilish usuli	Aniq turdagi daromadlarga tegishli (masalan, dividend, foiz).	93	Soliq ma'muriyati osonlashadi
<b>Polsha</b>	Soliq kredit usuli	Soliq rezidenti xorijdagi soliqni mahalliy soliqdan kamaytiradi.	85	Kam xarajatli va shaffof
<b>Chexiya</b>	Qo'shma usul (kredit + ozod qilish)	Mos bo'lgan holatga qarab usul tanlanadi.	80	Har ikkala usulning yaxshi jihatlari bor

O'zbekiston ham Yevropa davlatlari tajribasidan foydalanib, qo'shma usulni joriy etish orqali turli vaziyatlarga mos keladigan soliq mexanizmlarini ishlab chiqishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, soliq shartnomalari sonini ko'paytirish orqali xalqaro iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish mumkin. 2-jadvalda soliq kredit usulini qo'llayotgan Germaniya, Ispaniya, Polsha davlatlarida soliq to'lovchi chet elda to'langan soliqni o'z mamlakatidagi hisoblanadigan soliqdan kamaytiradi. Bu rezident davlat tomonidan amalga oshiriladigan to'g'ridan-to'g'ri himoya mexanizmi hisoblanadi. Buning afzallik tomonlari soliq rezidentlarining soliq yukini pasaytiradi, iqtisodiy faoliyatni chet elda kengaytirishni rag'batlantiradi va hisob-kitoblarda aniqlik va shaffoflik ta'minlanadi. Kamchiliklariga keladigan bo'lsak hujjat va hisobot talablari yuqori va ba'zan to'liq soliqni qoplamaydi.

Osiyo davlatlarida iqtisodiy integratsiyaning rivojlanishi bilan, ikkiyoqlama soliqqa tortish muammosi barcha davlatlar uchun muhim masalaga aylangan. Bu davlatlar

<sup>10</sup> Muallif tomonidan tayyorlandi.

o'zlarining investitsiya muhitini yaxshilash va xalqaro faoliyatni rag'batlantirish uchun ikkiyoqlama soliqni bartaraf etishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishga harakat qilmoqda.

### 3-jadval

#### Osiyo davlatlarida ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish modellarini soliq siyosatiga ta'siri tahlili (2019–2024)<sup>11</sup>

Mamlakatlar	Ta'sir ko'rsatayotgan soliq siyosati	Ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish usullari	Hukumat siyosati va integratsiya	Amaliyotdagi samaradorlik	Qo'llanilgan bitimlar
Hindiston	Chet eldan investitsiyalarni rag'batlantirishga qaratilgan.	Soliq kreditini berish, soliqdan ozod qilish	Bitimlar asosida integratsiya	Yirik korxonalarda samarali	Maqsadli bitimlar orqali to'lanadigan soliqlar
Singapur	Soliq imtiyozlari va biznes muhitini yaxshilash	Soliqdan ozod qilish, soliq kreditini berish	Iqtisodiy himoya va rivojlanish	Juda yuqori samaradorlik	Eksport va investitsiyaga yo'naltirilgan bitimlar
Qozog'iston	Xorijiy investorlarning manfaatlarini muhofaza qilish	Soliq kreditini berish, soliqdan ozod qilish	Moliyaviy birlashuvni qo'llab-quvvatlash	O'rtacha samaradorlik	Yevropa va Rossiya bilan bitimlar
Yaponiya	Investitsiyalarga tadbiq etilgan soliqlar orqali raqobatini oshirish	Soliq kreditini berish, soliqdan ozod qilish	Moliyaviy jozibadorlik	Samarali integratsiya	Bitimlar orqali soliqlarni kamaytirish
Malayziya	Xorijiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash	Soliq kreditini berish, soliqni hisobdan chiqarish	Boshqa mamlakatlar bilan raqobat	O'rta darajada samaradorlik	Investitsiya sektoriga yo'naltirilgan bitimlar

Ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish mexanizmlari Osiyo mamlakatlarida asosan quyidagi usullar orqali amalga oshirilgan:

1. Soliq kreditini taqdim etish usuli (Tax credit method). Bu usul, iqtisodiy integratsiyani rag'batlantirish va mamlakatlar orasidagi soliq siyosatini muvofiqlashtirishga qaratilgan. Chet elda to'langan soliqni mahalliy (o'z mamlakati) soliqdan chet elda to'lgan soliqlar qismiga kamaytirish maqsad qilingan.

2. Soliqdan ozod qilish usuli (Exemption method). Bu usulda, agar shaxs chet elda soliq to'lasa, unga mahalliy soliqdan ozod qilish imkoni beriladi. Bu, xususan, Shri-Lanka va Hindistonda keng qo'llaniladi.

3. Soliqni hisobdan chiqarish usuli (Deduction method). Bunda chet elda to'langan soliq o'sha daromaddan chegiriladi, ammo bu usul ayni vaqtda kam davlatlarda, asosan Malayziya va Singapurda qo'llaniladi.

Osiyo davlatlarida ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish bo'yicha tahlil qilgan holda 3-jadval ma'lumotlari namoyon bo'ldi. Jadval ma'lumotlari asosida Osiyo davlatlarida soliq siyosatidagi eng muhim omillardan biri xalqaro bitimlar va shartnomalar hisoblanib, Yevropa va Osiyo davlatlari o'rtasida tuzilgan ikkiyoqlama soliq bitimlari xalqaro soliq siyosatini samarali qo'llash uchun muhim omildir. Bu bitimlar soliqlarning ikki marta to'lanishini kamaytirish, hamda

<sup>11</sup> [www.world-tax.com](http://www.world-tax.com) sayt asosida muallif tomonidan tayyorlangan.




tranzhegara iqtisodiy faoliyatni rag‘batlantirishga yordam beradi. Soliq siyosatidagi hamkorlik va integratsiya bo‘yicha Osiyo mamlakatlari moliyaviy va iqtisodiy birlashuvni ko‘p holatlarda amalga oshirish orqali soliq muammolarini hal qilishga harakat qilmoqda. Bu turdagi hamkorliklar investitsiya muhitini yaxshilash va soliq yukini minimallashtirishda ahamiyatli bo‘ladi.

Osiyo mamlakatlarining xalqaro investitsiyalar uchun ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish mexanizmlari yildan yilga rivojlanib, yangi soliq siyosati va usullarini joriy etmoqda. Soliq kreditini taqdim etish va soliqdan ozod qilish usullari amaliyotda samarali qo‘llanilmoqda. Har bir davlatning soliq siyosatining aniq maqsadi bu investitsiya muhitini yaxshilash, iqtisodiy integratsiyani rag‘batlantirish va xalqaro iqtisodiy faoliyatni unumli ravishda muvofiqlashtirishdir.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“O‘zbekiston respublikasining ikki yoqlama soliqqa tortishni bartaraf etishga oid siyosatini amaldagi holati tahlili”** deb nomlangan bo‘lib, bu bobda xalqaro standartlarga muvofiq ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish mexanizmlarining tahlil, ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish uslubiyotining soliq to‘lovchilar faoliyatiga ta’siri tahlili va ikkiyoqlama soliqqa tortishini bartaraf etishda hukumatlararo kelishuvlarni qo‘llanilishi holati tahlili qilingan, ilmiy xulosalar chiqarilgan.

O‘zbekistonda xalqaro standartlarga muvofiq mexanizmlarning qo‘llanilishi O‘zbekistonning xalqaro hamkorlari bilan soliq shartnomalari tuzilishi, shubhasiz, ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etishda muhim rol o‘ynaydi. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi soliq sohasida ikki tomonlama soliqqa tortishning oldini olish va bilvosita soliqlarni undirish, soliq qonunchiligiga rioya etishda hamkorlik qilish, soliq qonunchiligi buzilishiga qarshi kurashishda o‘zaro yordam ko‘rsatish, axborot, shu jumladan soliq sohasida avtomatik axborot almashishga doir 80 ta xalqaro shartnomalar tuzilgan (5-Rasm).



**5-rasm. O‘zbekiston Respublikasi tomonidan tuzilgan xalqaro soliq shartnomalari<sup>12</sup>.**

<sup>12</sup> Muallif tomonidan tayyorlandi.

Ushbu tuzilgan shartnomalar turli yo‘nalishlarda bo‘lib, ular mamlakatning soliq siyosatida xalqaro hamkorlikka qanchalik ahamiyat qaratayotganini ko‘rsatadi. Ikki tomonlama soliq solishni bartaraf etish bo‘yicha (55 ta) umumiy shartnomalarning 68,7%ini tashkil etadi. Bu eng ko‘p tuzilgan shartnoma turidir. Ma‘lumki, ikki tomonlama soliq solish biznes uchun jiddiy to‘siq bo‘lishi mumkin. Shu sababli, bu kabi shartnomalar xorijiy investitsiyalar oqimini ko‘paytirish, soliq bazasini aniqlash va soliqlarni adolatli taqsimlash imkonini beradi. Soliq ma‘muriyati sohasida o‘zaro ma‘muriy yordam bo‘yicha 7 ta shartnoma tuzilgan. Bu shartnomalar soliq to‘lovchilarning ma‘lumotlarini tekshirish, surishtiruv o‘tkazish, yordam so‘rash kabi holatlarda foydali hisoblanadi. Bu turdagi hamkorlik soliqlardan bo‘yin tovlashning oldini olishga yordam beradi. Moliyaviy jinoyatlar va bojxona sohasida ma‘lumot almashish bo‘yicha 6 ta shartnoma tuzilgan bo‘lib, bu hamkorlik mamlakat xavfsizligi va moliyaviy barqarorligi uchun muhim hisoblanadi.

Xufiyona iqtisodiyot va soliqlardan qochish sxemalariga qarshi kurashishda katta ahamiyatga ega. Soliq sohasida ma‘lumot almashish bo‘yicha 5 ta shartnoma tuzilgan. Ushbu shartnomalar soliq organlari o‘rtasida ochiq ma‘lumotlar almashinuviga yo‘l ochadi. Soliq tizimida shaffoflikni ta‘minlaydi. Egri soliqlarni undirish tamoyillari to‘g‘risida 5 ta shartnoma tuzilib, ayniqsa, import-eksport jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu shartnomalar tovarlarga solinadigan soliqlar bo‘yicha kelishuvlarni belgilaydi. Avtomatik ma‘lumot almashish bo‘yicha esa, 2 ta shartnoma tuzilgan bo‘lib, avtomatik ma‘lumot almashish orqali daromadlar va mol-mulklar to‘g‘risida real vaqtda ma‘lumot olish mumkin bo‘ladi. Bu esa soliq to‘lashda shaffoflik va samaradorlikni oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi ham boshqa davlatlar bilan xalqaro soliq shartnomalarini tuzib kelmoqda. Mamlakat 1993-yildan beri yaqin va uzoq xorij davlatlari bilan xalqaro soliq shartnomalari tizimini shakllantirish ustida ish olib bormoqda. Tuzilgan shartnomalar, asosan, IHTT (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) namunaviy modellariga asoslangan. O‘zbekiston soliq qonunchiligiga rioya qilish, soliq buzilishlariga qarshi kurash, axborot almashinuvi va ko‘p tomonlama axborot almashinuvi kabi yo‘nalishlarda ham xalqaro shartnomalar tuzgan. O‘zbekiston Soliq masalalari bo‘yicha shaffoflik va axborot almashinuviga oid global forumga ham a‘zo bo‘lib kirmoqda<sup>13</sup>. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasining soliq qonunchiligi (Jumladan, Soliq kodeksi<sup>14</sup>, Davlat soliq xizmati to‘g‘risidagi qonun<sup>15</sup>, O‘zbekiston Respublikasi davlat Soliq qo‘mitasi to‘g‘risidagi Nizom<sup>16</sup>)da axborot almashinuvi (shu jumladan avtomatik), o‘zaro kelishuv protseduralari va soliq yig‘ishda yordam ko‘rsatish, boshqa mamlakatlar bilan qo‘shma soliq nazoratini amalga oshirishga oid qoidalar haligacha o‘z aksini topmagan.

---

<sup>13</sup> Soliq qo‘mitasining rasmiy sayti.//<https://soliq.uz/page/xalqaro-hamkorlik>, 03.05.2024

<sup>14</sup> Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, 2019-yil 30-dekabridagi O‘RQ-599-son bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Qonuni.

<sup>15</sup> 1997-yil 29-avgustdagi O‘RQ-474-I-sonli “Soliq xizmati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni.

<sup>16</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17-apreldagi 320-sonli qaroriga 1-ilova.



Xalqaro soliq shartnomalar talablariga asoslanib, xalqaro shartnomalarning quyidagi yo‘nalishlarining milliy soliq qonunchiligi qoidalarida qo‘llanilishini o‘rganildi:

- soliqdan ozod qilish yoki imtiyozli soliq stavkalarini qo‘llash;
- ikki tomonlama soliq solinishni bartaraf etish;
- o‘zaro kelishuv jarayonlari;
- soliq axborotini almashish;
- soliq yig‘ishda yordam ko‘rsatish.

Soliqdan ozod qilish va imtiyozli soliq stavkalari qo‘llanilishi O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida, xususan, 354-moddada xalqaro shartnomalar asosida norezidentlarga daromadlar to‘lashda soliqdan ozod qilish yoki kamaytirilgan soliq stavkalarini qo‘llash tartibi belgilangan. 357-moddada esa ushbu imtiyozlardan foydalanish tartibi aniq ko‘rsatilgan. Unga ko‘ra agar daromad oluvchi O‘zbekiston xalqaro shartnoma tuzgan davlatdagi soliq rezidenti hisoblansa, soliq agenti ushbu imtiyozlarni mustaqil tarzda qo‘llashi mumkin. Buning uchun soliq rezidentligini tasdiqlovchi hujjat daromad to‘lash kunigacha taqdim etilishi kerak. Agar norezident dividendlar, foizlar yoki royalti ko‘rinishida daromad olsa, soliq agenti ushbu shaxsning ushbu daromadlarga haqiqiy egalik qilishini ham hisobga olishi lozim. 2015-yilgacha O‘zbekistonda xalqaro shartnomalar asosida soliq imtiyozlarini faqat ruxsat berish tartibida qo‘llash mumkin edi. Ya’ni, soliq agenti avval Soliq qo‘mitasiga tegishli ariza bilan murojaat qilishi, va faqat tasdiq olinganidan so‘ng, shartnoma asosida imtiyozdan foydalanishi mumkin edi. Bu jarayon ko‘p vaqt talab qilar, ko‘pincha tranzchegaraviy operatsiyalardan so‘ng ortiqcha to‘langan soliqlar qaytarib olinishiga olib kelardi. Ruxsat berish tartibining bekor qilinishi tadbirkorlarning vaqt va moliyaviy xarajatlarini ancha qisqartirdi. Shuni ta’kidlash kerakki, O‘zbekiston SNG davlatlari orasida xalqaro soliq shartnomalarining imtiyoz qoidalarini avtomatik tarzda qo‘llashga o‘tgan ilk davlatlardan biri hisoblanadi.

#### 4-jadval

#### **Xalqaro shartnomalar orqali soliqqa tortilmaydigan daromadlar va soliqlar imtiyozlari tahlili (2020–2024)<sup>17</sup>**

Yillar	Qo‘llangan shartnomalar soni	Norezidentlarning ozod qilingan daromadlari (mlrd. sum)		
		Subyektlar soni	Daromad hajmi	Soliq summasi
2020	47	1 704	1 530,6	198,1
2021	49	651	5 129,8	557,4
2022	50	801	5 573,6	637,1
2023	52	149	1 530,7	903,2
2024	53	547	6 547,4	1122,7
<b>Jami:</b>		<b>3 852</b>	<b>20 312,1</b>	<b>3418,5</b>

<sup>17</sup> Soliq qo‘mitasining ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

2020–2024 yillarda xalqaro shartnomalar asosida norezidentlardan ushlanmay qolgan daromad solig‘i 3,4 trln so‘mni tashkil etgan bo‘lib, 2020-yilda – 198,1 mlrd so‘m, 2021-yilda – 557,4 mlrd so‘m, 2022-yilda – 637,1 mlrd so‘m, 2023 yilda – 903,2 mlrd so‘m va 2024 yilda – 1 122,7 mlrd so‘mga to‘g‘ri kelmoqda.

Yuqorida keltirilgan 4-jadval ma’lumotlarida 2020-yilda eng ko‘p subyektlarga (1 704) daromad hajmi 1 530,6 mlrd so‘mni tashkil qilgan. Soliqlardan ozod qilishda soliq miqdori 198,1 mlrd so‘mni ya’ni miqdor ko‘p bo‘lsa-da, mablag‘ ancha kam. 2021-yilga keladigan bo‘lsak, subyektlar soni keskin qisqargan (651), lekin daromad 3,5 barobarga oshgan ya’ni 5 129,8 mlrd so‘m, soliq summasi 557,4 mlrd so‘mni tashkil etadi. Bu subyekt – katta daromadga ega yirik norezident subyektlar ishtirok etgan. 2022-yilda esa subyektlar soni ko‘paygan (801) bo‘lib, daromad va soliq ko‘rsatkichlari yuqori darajada bo‘lib 5 573,6 mlrd va soliqlardan ozod qilish 637,1 mlrd so‘mni tashkil etgan. Tendensiya o‘shishda bo‘lib, faoliyat kengaymoqda. 2023-yilda subyektlar soni keskin tushgan (149), bu eng past ko‘rsatkich bo‘lib, daromad esa 2020-yil bilan deyarli bir xil ya’ni 1 530,7 mlrd so‘m, soliq summasi deyarli yuqori bo‘lib, 903,2 mlrd so‘m tashkil etdi. Bunda subyektlar soni kamchilikni tashkil etadi, lekin yuqori soliq imtiyozlari berilgan yoki yuqori stavka qo‘llanilgan daromadlarga tegishli hisoblanadi. 2024-yil yakuni bo‘yicha esa barqaror o‘shish kuzatiladi. Subyektlar soni (547) va daromad (6 547,4 mlrd so‘m) eng yuqori darajada. Soliq summasi 1 122,7 mlrd so‘m bo‘lib, bu eng yuqori ko‘rsatkich.

Bunda xalqaro shartnomalarning ta’siri ortib bormoqda. 2020–2024-yillarda jami 3 852 subyekt xalqaro shartnomalardan foydalangan. Ularning umumiy ozod qilingan daromad hajmi – 20,3 trln so‘m, soliq imtiyozlari – 3,4 trln so‘mni tashkil etib, soliqdan ozod qilingan daromad va soliqlar har yili oshib borgan, bu esa xalqaro shartnomalardan foydalanish dinamikasi oshganligini ko‘rsatadi. 2023-yilda subyektlar soni kamiga qaramay, katta soliq imtiyozi berilgani tahlil uchun muhim nuqta hisoblanadi. Xalqaro shartnomalar ta’sirini baholashda faqat subyektlar soni emas, balki daromad tuzilishi, sohalar bo‘yicha tahlil olib borish zarur. Soliq siyosatini shakllantirishda yuqori soliq imtiyozlari taqdim etilayotgan yo‘nalishlarni qayta ko‘rib chiqish kerak bo‘lishi mumkin. Tahlil natijalari asosida soliq qochish holatlari ehtimolini ham inobatga olish lozim bo‘ladi.

Investitsiya oqimlari O‘zbekiston tomonidan imzolangan xalqaro shartnomalar miqyosiga mos keladi. Shartnomalar orqali ikki tomonlama soliq solinishni bartaraf etish orqali respublikaga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimi oshgan. Buni 5-jadvalda keltirilgan mamlakatlar kesimida xalqaro shartnomalar orqali soliqqa tortilmaydigan daromadlar va soliqlar imtiyozlari miqdoriga qarab, tahlil qilishimiz mumkin.

5-jadval ma’lumotlarida keltirilgan tahlillarda Rossiya davlatida eng ko‘p subyektlar soniga ega (136) bo‘lib, aylanmalardan ozod qilingan daromad hajmi 1 257,0 mlrd so‘m, soliq imtiyozlari 205,6 mlrd so‘mni tashkil etgan. Rossiya kompaniyalari O‘zbekistondagi iqtisodiy faoliyatda katta o‘rin tutadi, xalqaro shartnomalardan keng foydalangan. Koreya davlati bilan tuzilgan shartnomalar natijasida, subyektlar soni kam (18) bo‘lsada, daromad hajmi 1 350,2 mlrd so‘m

bilan eng yuqori ko'rsatkichlardan biri hisoblanib, soliqlardan ozod qilingan miqdor - 143,8 mlrd so'm tashkil etadi.

## 5-jadval

### Mamlakatlar kesimida xalqaro shartnomalar orqali soliqqa tortilmaydigan daromadlar va soliqlar imtiyozlari tahlili <sup>18</sup>

Davlatlar nomi	Norezidentlarning ozod qilingan daromadlari (mlrd. sum)		
	Subyektlar soni	Daromad hajmi	Soliq summasi
Rossiya	136	1 257,0	205,6
Koreya	18	1 350,2	143,8
BAA	11	1 046,1	64,7
Turkiya	70	181,2	30,7
Xitoy	52	251,2	27,6
<b>Jami:</b>	<b>287</b>	<b>4085,7</b>	<b>472,4</b>

Bu Koreyada subyektlari soni kam bo'lsa ham, ularning har birining iqtisodiy faoliyati ancha yirik va investitsiyaviy salohiyati yuqori. Birlashgan Arab Amirliklari bilan hamkorlikda jami 11 subyekt faoliyat yuritgan. Ular tomonidan ozod qilingan daromad — 1 046,1 mlrd so'mni, soliq imtiyozi 64,7 mlrd so'mni tashkil qilgan. BAA kompaniyalari asosan moliyaviy va texnologiya sektorida faol bo'lishi mumkin, chunki kam ishtirokchi — yuqori daromadni tashkil etmoqda. Turkiya davlati bo'yicha 70 ta subyekt faoliyat yuritgan bo'lib, ular tomonidan ozod qilingan daromad 181,2 mlrd so'm, soliq imtiyozi 30,7 mlrd so'm tashkil etadi. Turkiya davlatida subyektlari soni ko'p, lekin ularning faoliyati miqyosi kichikroq bo'lib, bu import, savdo yoki qurilish sohalarida ishtirok etgan. Xitoy davlati bilan shartnomalar bo'yicha 52 subyekt tomonidan 251,2 mlrd so'm daromad ozod qilingan. Soliq imtiyozlari 27,6 mlrd so'mni tashkil qilgan.

Xitoy kompaniyalari soni ko'p, faoliyat miqyosi o'rtacha bo'lib, ular ishlab chiqarish, texnologiya yoki qurilish sohalarida ishtirok etgan. Eng katta daromad hajmiga ega davlatlar Koreya, Rossiya va BAA hisoblanib, eng ko'p subyektga ega davlat Rossiya hisoblanadi, bu O'zbekiston-Rossiya iqtisodiy aloqalarining mustahkamligidan dalolat beradi. Yuqori daromadli davlatlar Koreya va BAA, bu investorlar sifati va faoliyat yo'nalishlarini ko'rsatadi. Soliq imtiyozlari umumiy hisobda 801,7 mlrd so'mni tashkil qilgan. Soliq siyosatini shakllantirishda faqat subyektlar soniga emas, balki daromad miqdori va soliqlardan ozod etilgan summa nisbatiga ham e'tibor berish kerak. Katta daromad holatlari bo'yicha tahlilni chuqurlashtirish va ehtimoliy soliq optimallashtirish amaliyotlarini baholash lozim. Rossiya va Koreya kabi davlatlar bilan ikki tomonlama soliq shartnomalarini qayta ko'rib chiqish va amaldagi mexanizmlarni yaxshilash zarur bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida, jumladan 342 va 399-moddalarda, yuridik shaxslar foydasiga hamda jismoniy shaxslar

<sup>18</sup> Soliq qo'mitasining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

daromadlariga nisbatan xorijiy davlat qonunchiligi yoki O‘zbekistonning xalqaro shartnomalari asosida to‘langan (yoki ushlangan) soliqlarni hisobga olish tartibi belgilangan. Bu tartibdan foydalanish uchun bir vaqtda quyidagi shartlar bajarilishi lozim:

- daromad O‘zbekistonda soliqqa tortiladigan bo‘lishi kerak;
- o‘sha xorijiy davlat bilan O‘zbekiston o‘rtasida xalqaro soliq shartnomasi mavjud bo‘lishi lozim;
- soliq to‘langanini tasdiqlovchi rasmiy hujjat taqdim etilishi kerak.

Shuningdek, xorijda to‘langan soliq summasi O‘zbekistonda ushbu daromad uchun belgilangan soliq summasidan ortiq bo‘lmasligi shart. Xorijda soliq to‘langanini tasdiqlovchi hujjat sifatida, tegishli mamlakat kompetent organining ma’lumotnomasi yoki boshqa yuridik kuchga ega hujjat qabul qilinadi. Soliq hisobot<sup>19</sup>larida bu hisobga olish uchun alohida satrlar belgilangan bo‘lib, ular O‘zbekistonda to‘lanadigan soliq summasini kamaytiradi. Shuningdek, milliy soliq qonunchiligida xalqaro shartnomalarda nazarda tutilgan “ikki tomonlama soliq solinishni bartaraf etish” mexanizmini amalga oshirish uchun yetarlicha huquqiy asoslar mavjud.

## 6-jadval

### Xorijiy davlatlarda ro‘yxatdan o‘tgan elektron shaklda xizmatlar ko‘rsatuvchi chet el korxonalari tomonidan to‘langan soliqlar tahlili (2020–2024)<sup>20</sup>

(mln.so‘m)

Korxona nomi	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
<b>Jami:</b>	<b>12 250,5</b>	<b>22 550,1</b>	<b>44 749,3</b>	<b>77 201,0</b>	<b>115 780,1</b>
Meta platforms Ireland limited	5 874,9	10 777,2	18 594,4	28 816,2	41 712,1
Apple distribution international limited	1 934,0	3 200,3	6 264,7	14 423,1	27 282,8
Google commerce limited	3 452,4	6 416,2	11 101,5	15 790,2	22 843,8
Google Ireland limited	214,3	259,5	3 579,9	4 211,3	4 291,1
Amazon.com services, llc	0,0	0,0	0,0	1 653,2	3 688,5
Booking.com b.v.	179,2	376,7	1 439,7	2 428,7	3 641,7
Zoom video communications, inc.	0,0	0,0	0,0	1 096,7	1 398,3
Netflix international b.v.	190,2	479,4	867,7	1 214,5	1 428,6
The association of chartered certified accountants	0,0	0,0	0,0	344,7	1 243,0
Yandex europe ag	135,2	353,5	445,5	757,7	0,0
Xsolla (usa), inc.	63,2	188,3	798,1	829,0	966,6
Google cloud emea limited	0,0	0,0	103,9	1 216,0	1 808,9
Spotify ab	0,0	25,1	157,5	474,4	697,3
Adobe systems software ireland limited	0,0	36,7	180,3	322,2	675,3
Boshqalar	207,0	437,0	1 216,0	3 623,1	4 102,1

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning kengayib borishi, jahon bozorida faoliyat yuritayotgan subyektlar sonining ortishi bilan bir qatorda, ikki mamlakatda o‘zaro bir vaqtda soliqqa tortish holatlari ham ko‘paymoqda. Bunday sharoitda, ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish mexanizmlarining samaradorligini ta’minlash, soliq to‘lovchilarning

<sup>19</sup> O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasining qarori, 24.02.2020-yilda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 3221.

<sup>20</sup> Soliq qo‘mitasining ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

iqtisodiy faolligiga qanday ta'sir ko'rsatayotganini chuqur tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Vazirlar Mahkamasining qaroriga<sup>21</sup> asosan elektron shaklda xizmatlar ko'rsatuvchi chet el yuridik shaxslarini soliqqa tortish sohada samarali nazoratni ta'minlaydigan mexanizmlarni joriy etish maqsadida xorijiy davlatlar tajribasini o'rgangan holda takliflar ishlab chiqish belgilangan. Joriy yilning 1-fevral holatiga jami 65 ta elektron shaklda xizmatlar ko'rsatuvchi chet el korxonalari QQS to'lovchi sifatida ro'yxatdan o'tgan bo'lib, mazkur korxonalar tomonidan 2020-2024-yillar davomida jami 272,5 mlrd.so'm soliq to'langan. Buni 6-jadvalda tahlilini ko'rishimiz mumkin. 6-jadval ma'lumotlaridan shuni tahlil qilishimiz mumkinki, so'nggi besh yillikda xorijiy yuridik shaxslar tomonidan elektron shaklda ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'langan soliqlar miqdori yil sayin izchil o'sib borayotgani kuzatilmoqda. Agar 2020-yilda ushbu korxonalar tomonidan to'langan umumiy soliqlar miqdori 12 250,5 mln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 115 780,1 mln so'mga etgan. Bu 9,5 barobar o'sishni ifoda etadi. Yillar kesimida o'sish tendensiyasi ko'radigan bo'lsak, 2020-yilda 12 250,5 mln so'mni, 2021-yilda 22 550,1 mln so'mni (83,9% o'sish), 2022-yilda 44 749,3 mln so'mni (98,5% o'sish), 2023-yilda 77 201,0 mln so'mni (72,5% o'sish) va 2024-yilda 115 780,1 mln so'mni (49,9% o'sish) tashkil etadi.

Ushbu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, 2020–2022-yillarda soliq tushumlari jadal sur'atlar bilan oshgan bo'lsa, keyingi yillarda ham o'sish saqlangan, ammo sur'ati biroz pasaygan. Bu esa raqamli xizmatlar bozorining barqaror rivojlanayotganidan dalolat beradi.

## 7-jadval

### 2022-2024-yil davomida O'zbekiston Respublikasining rezidentlari bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarga taqdim etilgan rezidentlik sertifikatlari tahlili<sup>22</sup>

Davlat nomi	Jami berilgan sertifikat soni	Shundan		Rezidentlik sertifikati davri (Yuridik shaxslar uchun)						Rezidentlik sertifikati davri (Jismoniy shaxslar uchun)		
		Yuridik shaxslar	Jismoniy shaxslar	2022-yil		2023-yil		2024-yil		2022-yil	2023-yil	2024-yil
				Korxona soni	Sertifikat soni	Korxona soni	Sertifikat soni	Korxona soni	Sertifikat soni			
<b>Jami:</b>	<b>9 839</b>	<b>6 875</b>	<b>2 964</b>	<b>927</b>	<b>1 245</b>	<b>1 187</b>	<b>1 578</b>	<b>2 879</b>	<b>4 052</b>	<b>648</b>	<b>853</b>	<b>1 463</b>
РОССИЯ	3 048	2 533	515	310	431	435	614	985	1 488	70	125	320
ҚОЗОҒИСТОН	2 537	2 057	480	309	438	314	435	784	1 184	124	151	205
СЛОВЕНИЯ	1 072	4	1 068	2	2	0	0	2	2	260	319	489
БЕЛАРУСЬ	792	724	68	90	118	148	197	321	409	17	18	33
ГРУЗИЯ	257	197	60	28	36	41	48	88	113	25	19	16
ҲИНДИСТОН	195	153	42	20	34	26	36	53	83	13	7	22
УКРАИНА	154	113	41	22	24	39	44	36	45	18	10	13
ҚИРҒИЗИСТОН	205	183	22	27	30	26	31	94	122	4	6	12
ПОЛЬША	164	97	67	14	16	20	53	53	61	11	20	36
ЛАТВИЯ	125	37	88	6	6	11	11	17	20	15	54	19


Elektron shakldagi xizmatlar jumlasiga kirmaydigan holatlar ham mavjud bo'lib, ular agar Internet tarmog'i orqali buyurtma berilganda tovarlar yetkazib berish (xizmatlar ko'rsatish) aslida Internet tarmog'idan foydalanmagan holda amalga oshiriladigan bo'lsa,

<sup>21</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 26-dekabrda 885-sonli qarori 7-bandi.

<sup>22</sup> Soliq qo'mitasining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish, elektron hisoblash mashinalari (shu jumladan kompyuter o'yinlari) uchun dasturlarni va moddiy jismlardagi ma'lumotlar bazalarini realizatsiya qilish (ulardan foydalanish huquqlarini taqdim etish) va elektron pochta orqali maslahat xizmatlari ko'rsatish hamda internet tarmog'idan foydalanish imkonini berish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishga kiradi.

O'zbekiston bilan tuzilgan ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish bo'yicha shartnomalar amal qilishining asosiy sharti bitim ishtirokchilari mazkur ahdlashgan davlatlarning rezidenti bo'lishi va rezidentlik sertifikatiga ham ega bo'lishi kerak (6-rasmga qarang). O'zbekiston Respublikasining rezidentlari bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarga taqdim etilgan rezidentlik sertifikatlarini 55 ta davlatlarning barchasi bo'yicha batafsil tahlilini dissertatsiyaning 3-ilova muvofiq taqdim etilgan.



**6-rasm. O'zbekistonda rezidentlik sertifikatini taqdim etish ketma ketligi tartibi tahlili**<sup>23</sup>

Rezidentlik sertifikatini taqdim etish ketma ketligini 6-rasmda ko'rishimiz mumkin. Rezidentlik sertifikatini taqdim etish bo'yicha xorijiy tajribasini tahlil qilganimizda ham Rossiya Federatsiyasining soliq rezidenti maqomini tasdiqlovchi hujjatlarni berish Rossiya Federal soliq xizmatining markazlashtirilgan ma'lumotlarni qayta ishlash bo'yicha hududlararo inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Qozog'iston Respublikasi soliq rezidenti maqomini tasdiqlovchi hujjatlarni berish Qozog'iston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat daromadlari qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi. O'zbekistonda Soliq qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi.

Norezidentlarning 18 ta turdagi daromadlaridan to'lov manbaida soliq ushlab qolinadi. O'zbekistondagi faoliyat 183 kundan ortiq davom etsa, norezident doimiy muassasa sifatida soliqlarni O'zbekistonda to'laydi. Norezident soliq agentiga rezidentlik sertifikatini taqdim etilmaganda va taqdim etilgandagi holatlarini tahlil qilganimiz.

<sup>23</sup> YAIDXP- Yagona interaktiv davlat xizmatlari va DXM- Davlat xizmatlari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Norezident soliq agentiga rezidentlik sertifikatini taqdim etilmaganda 7-rasmda holatni ko‘rishimiz mumkin.



**7-rasm. O‘zbekistonda rezidentlik sertifikatini taqdim etilmagandagi holati tahlili<sup>24</sup>**

Yuqoridagi rasmdagi holatlarni tahlil qilganimizda soliq agenti 2024-yil 10-mayda norezidentga 1500 AQSH dollari miqdorida to‘lov to‘laydi. Soliq agenti 300 AQSH dollarini (1500 x 20%) ushlab qoladi va norezidentga 1200 AQSH dollarini (1500 – 300) o‘tkazadi. Soliq agenti 300 AQSH dollarini 10-maydagi Markaziy bank kursi bo‘yicha hisoblangan soliqni 2024-yil 11-maydan (banklar keyingi oyning 5 sanasidan) kechiktirmay to‘lashi kerak. Soliq kodeksiga muvofiq, faqatgina haqiqiy va yuridik jihatdan tasdiqlangan rezidentlik sertifikatini taqdim etilganda soliq to‘lovchi ikki tomonlama shartnoma asosida imtiyozlardan foydalanishi mumkin. Aks holda – imtiyozlar tatbiq etilmaydi. Bu hujjatning mavjudligi ikki tomonlama soliq solishni bartaraf etishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ammo, ko‘p hollarda norezidentlar O‘zbekistonda faoliyat yuritir ekan, rezidentlik sertifikatini taqdim etmaydi. Bu esa ularga nisbatan soliq yukining ortishiga olib keladi.

Norezident soliq agentiga rezidentlik sertifikatini (tax residency certificate) taqdim etganda, 8-rasmda aks ettirilgan shaklga muvofiq, daromadga nisbatan ushlab qolish (withholding) tartibi shartnoma qoidalariga mos ravishda qayta ko‘rib chiqiladi. Amalda bu shuni anglatadiki, norezident o‘z mamlakatida rezident ekanini rasmiy tasdiqlovchi hujjatni bergach, soliq agenti ikkiyoqlama soliqqa tortishni oldini olish bo‘yicha tegishli imtiyozlarni qo‘llaydi. Masalan, biror bir davlat manbaida ushlab qolish stavkasi, shartnomadagi cheklangan stavkagacha pasaytiriladi yoki ayrim hollarda daromad butunlay ozod etiladi. Norezident tomonidan rezidentlik sertifikatini taqdim etilganda imtiyozlarni qo‘llashning mantiqiy ketma-ketligini hujjat tekshiruvidan shartnoma moddasini aniqlash undan cheklov(LOB/beneficial-owner) mezonlarini baholash va pasaytirilgan stavka yoki ozodlikni qo‘llash, shungdek to‘liq hujjatlashtirish amalga oshiriladi va shu orqali ikkiyoqlama soliqqa tortish xavfi kamayadi.

<sup>24</sup> Soliq qo‘mitasining ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.





**8-rasm. O‘zbekistonda rezidentlik sertifikatini taqdim etilgandagi holati tahlili<sup>25</sup>**

Shu orqali ikkiyoqlama soliqqa tortish xavfi kamayadi va to‘lovchi uchun adolatli soliq yukiga erishiladi. Hozirgi kunda xalqaro soliq munosabatlarida rezidentlik sertifikatini juda muhim rol o‘ynaydi. Bu hujjat orqali chet ellik soliq to‘lovchilar o‘zlarining asl soliq rezidenti ekanligini isbotlab, ikki tomonlama soliq shartnomalaridan foydalanish huquqini oladilar. O‘zbekistonda rezidentlik sertifikatini taqdim etilganda, norezidentlarga imtiyozli soliq rejimlari qo‘llaniladi. 10-rasmdagi holat yuzasidan tahlil qilganimizda soliq agenti 2024-yil 10-mayda norezidentga 1500 AQSH dollari miqdorida to‘lov to‘laydi. Soliq agenti xalqaro shartnoma qoidalarini qo‘llaydi. Soliq agenti soliq ushlab qolmaydi va norezidentga 1500 AQSH dollarini to‘liq o‘tkazadi.

Norezident soliq agenti rezidentlik sertifikatini daromad to‘langan vaqtda taqdim etilmagan, lekin keyin taqdim etildi taqdirda 9-rasmdagi holatni ko‘rishimiz mumkin.



**9-rasm. Norezident soliq agenti rezidentlik sertifikatini daromad to‘langan vaqtda taqdim etilmagan holati tahlili<sup>26</sup>**

<sup>25</sup> Soliq qo‘mitasining ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

<sup>26</sup> Soliq qo‘mitasining ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



Yuqoridagi 9-rasmdagi holatni tahlil qiladigan bo'lsak, soliq agenti 2024-yil 10-mayda norezidentga 1500 AQSH dollari miqdorida to'lov to'laydi. Soliq agenti 300 AQSH dollarini ( $1500 \times 20\%$ ) ushlab qoladi va norezidentga 1200 AQSH dollarini ( $1500 - 300$ ) o'tkazadi. Norezident soliq agentiga belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan rezidentlik sertifikatini taqdim etadi hamda soliq organiga to'lov manbaidan ushlab qolingani soliqni qaytarish bo'yicha ariza bilan murojaat qiladi. Soliq organi arizani belgilangan tartibda ko'rib chiqib, soliqni qaytarib beradi. Misol tariqasida tahlil qilganimizda "Golden Food" MCHJda o'tkazilgan soliq auditida tashqi savdo operatsiyalari o'rganilganda jamiyat tomonidan 2020-yilda Turkiyaning "Or-tas Degirmen Makinalari Ic Ve Dis Tic LTD.STI" kompaniyasidan jami qiymati 5 598,1 mln.so'm bo'lgan "Tovuq ozuqasi ishlab chiqarish" uskunasi import qilinganligi, ushbu import qilingan uskunani o'rnatib berish xizmatining qiymati shartnomada alohida ko'rsatilmaganligi, biroq, shartnomada uskunani o'rnatib berish xizmatini sotuvchi tomonidan amalga oshirilishi belgilanganligi aniqlangan. Soliq kodeksining 351-moddasi, 18-bandiga asosan uskuna qiymatining 20 foizi 1 119,6 ( $5\,598,1 \times 20\%$ ) mln so'm uskunani o'rnatib berish xizmatining qiymati sifatida qaralib, belgilangan stavkada 223,9 mln so'm norezident daromadidan olinadigan foyda solig'i qo'shimcha hisoblangan.


Ikkiyoqlama soliq shartnomalari qo'llanilishi uchun soliq to'lovchi o'z mamlakatidan olingan rezidentlik sertifikatini O'zbekistondagi soliq agentlariga taqdim etishi lozim. Shartnomalarda har bir daromad turi bo'yicha (dividend, foiz, royalti, xizmatlar) alohida imtiyozli stavka belgilangan. (xalqaro shartnomalar mazmuni bo'yicha tahliliy ma'lumot dissertatsiyaning 4-ildovaga asosan taqdim etiladi). Agar soliq to'lovchi O'zbekistonda yuqori stavkada soliq to'lagan bo'lsa, o'z mamlakatining soliq organiga murojaat qilib, mazkur to'lovlarni soliqdan chegirishi, qaytarib olishi, keyingi yillar uchun hisobga olishi mumkin.

Ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish siyosati O'zbekistonda xalqaro andozalarga muvofiq ravishda joriy etilayotgani ijobiy holdir. Bu siyosat soliq to'lovchilarning ishonchini oshirmoqda, xorijiy sarmoyalar uchun qulay huquqiy muhit yaratmoqda, iqtisodiy integratsiya jarayonlarini faollashtirmoqda. Biroq ushbu siyosatni yanada samarali qilish uchun rezidentlik sertifikatlarining raqamlashtirilgan, elektron shaklda olinishi va tan olinishi mexanizmlarini ishlab chiqish, soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasida xalqaro soliq bilimlarini oshirish, hukumatlararo kelishuvlarni yangilab borish va yangi standartlarga moslashtirish lozim deb hisoblaymiz.

Dissertatsiyaning **"Ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish metodologiyasini takomillashtirish"** deb nomlangan to'rtinchi bobda asosiy masala O'zbekistonda amaldagi xalqaro soliq bitimlarini qayta ko'rib chiqish iqtisodiy zarurati va takomillashtirish, shuningdek, ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etishning amaliy metodologiyasini takomillashtirish yoritilgan.

Tadqiqot ishi jarayonida xalqaro soliq bitimlari mamlakat iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lib, investorlarning ishonchini oshirish, soliq yukini adolatli taqsimlash va soliq qochish holatlarining oldini olishda muhim vosita hisoblanadi. O‘zbekistonda 80 ta davlat bilan soliq bitimlari mavjud bo‘lsa-da, ularning ayrimlari yangilanishni talab etadi. Shu bois, bitimlarni tizimli qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirish zarurati tug‘ilmoqda. O‘zbekistonda amaldagi xalqaro soliq bitimlarini qayta ko‘rib chiqish natijasida muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligiga o‘zgartish va qo‘shimchalarni kiritish hamda uni takomillashtirish bo‘yicha bir qator takliflarni ishlab chiqdik.

Soliqqa oid bitimlarni ham qayta ko‘rib chiqish algoritmi ishlab chiqqanmiz. Bu 10-rasmda mavjud bitimlar bo‘yicha algoritm ketma-ketligini keltirib o‘tganmiz.




**10-rasm. Xalqaro soliq bitimini qayta ko‘rib chiqish metodologiyasi<sup>27</sup>.**

Mavjud soliqqa oid bitimlarni tahlil qilishda bu birinchi bosqichda amaldagi xalqaro soliq bitimi atroflicha o‘rganiladi. Tahlil bitimning qanday maqsadda tuzilgani va u qay tarzda amalga oshirilayotgani, uning yuridik tuzilishi, soliq yukini taqsimlash mexanizmi va boshqa mamlakatlar bilan taqqoslangan holda qanchalik samarali ekani o‘rganiladi. Bitim samaradorligini baholashda (iqtisodiy, huquqiy, moliyaviy) bitimning amaliy ta’siri turli jihatlardan baholanadi ya’ni iqtisodiy bo‘lib, investorlar uchun qay darajada jozibador, soliq yuki kamayishi yoki ko‘payishi va huquqiy jihatdan bitim milliy qonunlar bilan uyg‘unlashganmi yoki ziddiyatli holatlar bormi yoki yo‘qligini, moliyaviy tomondan davlat byudjetiga ta’siri qanday, soliq oqimlarining dinamikasi qanday o‘zgargan ko‘rib chiqildi. Kamchiliklarni aniqlash va ularni toifalashda aniqlangan muammolar saralanadi va ular toifalarga ajratildi. Misol uchun soliq qochishga imkon beradigan normalar, BEPS talablariga mos kelmaydigan holatlar va tyexnik yoki

<sup>27</sup> Soliq qo‘mitasining ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

huquqiy muammolar bu toifalashda keyingi yangilash jarayoni uchun asos bo'ladi. Yangilangan normalarni ishlab chiqish va muvofiqlashtirish yuzasidan esa kamchiliklar asosida yangi huquqiy mexanizmlar taklif etiladi. Bu bosqichda BEPS tavsiyalariga mos normalar kiritiladi, shuningdek, huquqiy aniqlik, moliyaviy shaffoflikni ta'minlovchi mexanizmlar ishlab chiqiladi va mehnat bozori, investitsiya muhitiga ta'siri hisobga olinadi. Xalqaro muzokaralar va kelishuvlarni amalga oshirishda yangi normalarni xalqaro darajada kelishish uchun muzokaralar o'tkaziladi va qarshi tomon bilan muhokamalar, soliq yukining har ikki tomon uchun adolatli bo'lishiga e'tibor hamda iqtisodiy manfaatlar balansi saqlanadi. Yangilangan bitimni ratifikatsiya qilish bo'yicha esa yakunlovchi bosqichda kelishilgan yangilangan bitim parlament yoki vakolatli organ tomonidan rasmiy tasdiqdan o'tkaziladi. Bu jarayon konstitutsiya va qonunlarga muvofiq tarzda amalga oshiriladi va bitim rasman kuchga kiradi va amaliy faoliyatda qo'llanila boshlaydi. Ushbu algoritm xalqaro soliq bitimlarini zamonaviy talablar asosida takomillashtirishning bosqichma-bosqich modeli hisoblanadi. U nafaqat mavjud holatni baholashni, balki samarali takliflar ishlab chiqib, ularni amalga oshirishgacha bo'lgan jarayonni qamrab oladi. Bu yondashuv orqali O'zbekiston o'z xalqaro soliq siyosatida shaffoflik, barqarorlik va investitsion jozibadorlikni ta'minlashi mumkin.



**11-rasm. Ikki yoqlama soliqqa tortishni oldini olish bo'yicha xalqaro shartnomalarni O'zbekistonda qo'llash metodologiyasi.<sup>28</sup>**

<sup>28</sup> Muallif tomonidan tayyorlandi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi ikki yoqlama soliqqa tortishni oldini olish bo'yicha 55 tadan ortiq mamlakatlar bilan shartnoma imzolangan bo'lib, ikkiyoqlama soliqqa tortishni oldini olish bo'yicha xalqaro shartnomalarni O'zbekistonda qo'llanilishini quyidagi 11-rasm ma'lumotlari asosida ko'rish mumkin. Yuqorida keltirilgan rasmda xorijiy hamkor davlat bilan shartnoma mavjudligini aniqlash metodologiyasini ko'rib chiqqanmiz. Agar shartnoma mavjud bo'lmasa, avtomatik ravishda O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligi qo'llaniladi. Agar shartnoma mavjud bo'lsa, keyingi qadamga o'tiladi va shartnomada to'lanishi lozim bo'lgan daromadga tegishli moddani aniqlash metodologiyasini ko'rib chiqiladi. Bunda agar modda aniqlanmasa, "Boshqa daromadlar" moddasini topish lozim bo'ladi. Agar "Boshqa daromadlar" moddasi ham mavjud bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligi qo'llaniladi. Agar "Boshqa daromadlar" moddasi mavjud bo'lsa, keyingi bosqich tyegishli moddaning shartlariga asosan tartib tanlanadi. Agar modda aniqlansa (yoki "boshqa daromadlar" bo'yicha ham bo'lsa), xalqaro soliq shartnomasi tartibiga asosan qo'llaniladi va bu yerda ikki holat ko'zda tutiladi, tyegishli moddaning shartlariga asosan tartib tanlanadi va ariza rasmiylashtiriladi. Bu degani, soliq imtiyozlaridan foydalanish uchun rasmiylashtirish lozim bo'ladi. Natijada xalqaro soliq shartnomasi qoidalari qo'llaniladi. Ushbu rasmda ikki asosiy yo'nalishga ajratiladi ya'ni xalqaro soliq shartnomasi mavjud va unda daromad turi ko'rsatilgan bo'lsa, unga muvofiq tartib qo'llaniladi, imtiyoz olish uchun ariza talab etiladi. Shartnoma mavjud emas yoki daromadni qamrab olmaydigan modda topilmasa, O'zbekiston soliq qonunchiligi asos qilinadi.

Ushbu shartnomalar doirasida soliq idoralari orqali soliq qonunchiligining zarur darajada bajarilishini ta'minlash maqsadida, bir-birlariga quyidagi masalalarda o'zaro ko'mak ko'rsatishi belgilangan:

- soliq qonunchiligi buzilishining oldini olish va uni bartaraf etishda;

